

O‘ZBEK MILLIY INTERYER DIZAYNDA AMALIY BEZAK SAN’ATINING TUTGAN O‘RNI



Moxira Xusanovna Shodiyeva

2-bosqich tayanch doktorant

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-12>

Annotatsiya: Turli olimlar tomonidan xalq amaliy san’ati bo‘yicha ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borganlar, lekin interyer dizayn sohasi keng o‘rganilmagan. O‘zbek interyer dizaynining ko‘p asrlik shakllanishi davomida xalq amaliy bezak san’atining o‘rni muhim hisoblanadi. Amaliy bezak san’ati turlaridan naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlikni yuzaga kelishi, o‘ziga xos tomonlari, qaysi asrlarda rivojlanganligi o‘rganildi va ularning har bir hududda maktablar tashkil etgan ustalarning nomlari jadval asosida tizimlashtirildi. Sobiq Polovsev uyining ichki interyeri o‘rganilib, taxlil etildi. Naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlikning uzviy bog‘liqligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: Naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, usta, o‘zbek interyeri, tokcha, badiiy maktab, milliylik.

Аннотация: Различные ученые провели множество научных исследований по народному прикладному искусству, но область интерьерного дизайна изучена недостаточно. В процессе многовекового формирования узбекского интерьерного дизайна народное прикладное декоративное искусство играет важную роль. В исследовании рассматривается возникновение таких видов прикладного декоративного искусства, как роспись, резьба по дереву и лепнина, их особенности и века, в которых они развивались. Также систематизированы имена мастеров, создавших художественные школы в различных регионах, на основе таблицы. Был изучен и проанализирован интерьер бывшего дома Половцева. Показана взаимосвязь росписи, резьбы по дереву и лепнины.

Ключевые слова: Роспись, лепнина, резьба по дереву, мастер, узбекский интерьер, ниша, художественная школа, национальная самобытность.

Abstract: Various scholars have conducted numerous scientific studies on folk applied art, but the field of interior design has not been extensively explored. Throughout the centuries-long development of Uzbek interior design, folk applied decorative art has played a significant role. The study examines the emergence of types of applied decorative arts such as ornamental painting, wood carving, and stucco decoration, their unique characteristics, and the centuries in which they developed. It also systematizes the names of craftsmen who established artistic schools in different regions through a tabular format. The interior of the former Polovtsev house was studied and analyzed. The interrelation of ornamental painting, wood carving, and stucco decoration was demonstrated.

Keywords: Ornamental painting, stucco decoration, wood carving, master, Uzbek interior, niche, artistic school, national identity.

Xalq amaliy bezak san’ati asarlari o‘zining qadimiyligi, bezakdorligi, chiroyli shakllari hamda tarbiyaviy, falsafiy, ruhiy xususiyatlari bilan yuksak qiymatga ega. Bu san’at ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, uy jihozlari, mehnat qurollari, mato, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar va shu kabilar)ni badiiy ishlash bilan bog‘liq ijodiy qo‘l mehnati sohalarini o‘z ichiga oladi. Eng ko‘p rivojlangan turlaridan suyak o‘ymakorligi, ganchkorlik, toshtaroshlik, naqqoshlik,

zardo‘zlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, gilamdo‘zlikdir. Ammo binolarni kishilar diqqatini o‘ziga tortuvchi tabiatning go‘zal manzaralariga monand naqshlar bilan bezashda asosan naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligiga yuzlanilgan.

O‘rta Osiyo amaliy bezak san’ati qadimdan me‘morchilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bunga Buxoro, Samarqand, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlarning olamga mashhur yodgorliklari misol bo‘la oladi. Bu shaharlarning qanchalik qadimiyligi e‘tirof etilib, Buxoro, Xiva va Termiz shahrining 2500 yillik, Samarqand shahrining 2750 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shahrining 2200 yillik, Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubleylari nishonlandi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo‘lgan bu shaharlarda o‘sha davr xalqning ijtimoiy-madaniy turmush tarzi, me‘morchiligi hamda amaliy bezak san’ati haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz uchun to‘liq ma‘lumot bera oladigan moddiy va manaviy boyligimiz hisoblanadi.

“Xalqimiz qadim-qadimdan amaliy san’at turlarini nechog‘lik ardoqlaganini, naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi kabi mashaqqatli, shu bilan birga sharaflini hunarni faqat eng munosib va fidoyi kishilargagina ishonib topshirganini ko‘ramiz”. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrlarda ham naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorlik, ganchkorlik amaliy bezak san’at turlariga katta e‘tibor qaratilgan.

Naqqoshlik san’ati qadimdan insonning moddiy muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qilib kelgan. Naqsh – gul, bezak degan ma‘noni bildirib, amaliy san’at asarlariga chiroy bag‘ishlaydi. Xalq ustalari tomonidan jilolangan me‘moriy obidalar, turar joy va ro‘zg‘or buyumlari go‘zallikni idrok etishimiz, ma‘naviyatimiz va o‘zligimizni chuqurroq anglashimiz borasida bebahodir.

“Naqqoshlar madrasada tahsil olganlar, adabiyot, tarix, musiqa va matematika fanlarini yaxshi bilganlar. Qadimdan naqqoshlar naqsh ishlash sirlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlariga o‘rgatganlar. Shogirdlar esa usta bo‘lganlaridan so‘ng bilganlarini o‘z shogirdlariga meros qilib qoldirganlar. Shunday qilib, naqqoshlik kasbini an‘ana tariqasida rivojlantirib kelganlar”. Xalq amaliy san’atining barcha turlarida naqshdan foydalaniladi. Shu sababli o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng rivojlangan turlaridan biri naqqoshlik hisoblanadi.

Xorazmdagi Tuproq-qal‘a (III-asr), Surxandaryodagi Dalvarzin-tepa, Fayoz-tepa (I-II asr) devorlari ham turli rasm va naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma‘lum. VIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoga islom madaniyatining kirib kelishi bilan, badiiy bezak – naqqoshlik san’atining yanada rivojlanishiga sabab bo‘ldi. IX asrlarda ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, naqqoshlik, g‘isht terish, kitob bezagi san’atlari yanada rivojlandi. Buyuk allomalar, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy va boshqalarning ilmiy, tibbiy, ma‘naviy hamda qur‘on oyatlari zarxal naqshlar bilan bezatildi.

XVI-XVII asrlarda Xo‘ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr), Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi (XVI asr), Samarqanddagi Tillaqori madrasalari (XVII asr) zarxal naqshlar (kunal texnikasi) bilan bezatildi. Bu usul “mag‘zi soxta” deb ham yuritiladi. Naqqoshlikda lojuvard, yashil, qizil, tilla hal bo‘yoq tuslarini o‘zaro bog‘lanishi asosidagi “turunj” namoyon, girix usullaridan tashkil topgan naqsh namunalarini ko‘plab ishlangan. Naqqoshlik san’ati asrlar osha bizgacha yetib kelishida o‘ziga xos naqsh maktablari shakllanishidir. O‘zbekistonning bir necha viloyatlarida ana shunday maktablar xalq ustalari yetishib chiqib, faoliyat ko‘rsatdilar.

S.Bulatov amaliy bezak san’ati bo‘yicha ko‘p yillik izlanishlari natijasida “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” kitobini nashr etirib, ganchkorlikni qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, O‘rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg‘oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me‘morchiligida namoyon etib kelganligi to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Ayniqsa, O‘rta Osiyoda yaratilgan asarlar o‘ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ganchkor ustalarining va ular tashkil etgan maktablarining o‘rni ahamiyatli ekanligi keng yoritilgan.

1-jadval


Dizayn turi	Amaliy bezak san'at turlari (XIX – XX asrlar)	Ustalar nomi	
O'zbek milliy interyer dizayn	Naqqoshlik	Toshkent	Olimjon Qosimjonov, Jalil Hakimov, Sherali Hoji Hasanov, Vakil va Sobir Isaevlar, Anvar Ilxomov, Yoqubjon Raufov, Toir To'xtaxo'jaev, Mahmud To'rayev, Komil Karimov,
		Qo'qon	Norqo'zi Nurmatov, Saidmahmud Norqo'ziev, Saidahmad Mahmudov
		Xorazm	Abdulla Boltaev, Xo'janiyoz Saidniyozov, Eshmurodov Sofoev, aka-uka Vafo va Bolta Mirzaevlar, Ro'zimat Masharipov
		Samarqand	usta Raxmon, usta Jamoliddin, usta Sharif, usta Aminjon, usta Mahmud
		Xiva	Abdulla Boltayev
	Yog'och o'ymakorligi	Toshkent	Sulaymon Xo'jayev, Maqsud Qosimov, Ortiq Fayzullayev
		Qo'qon	Haydar Najmiddinov va Qodirjon Haydarov, Abdurazzoq Abduraxmonov
		Samarqand	Abduhofiz Jalilov, Asatillo, Nurilla Narzullaev
		Xiva	Ota Polvonov, Sapo Boqbekov
	Ganch o'ymakorlik	Xorazm	Ro'zimat Masharipov, Karimbergan Rahimov, Karimbergan Polvonov, Yusuf Xudoyberganov, Bekjon Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Odamboy Yoqubov
		Buxoro	Shirin Murodov, Qurbon Yo'ldoshev, Ibrohim Hafizov, Nazrullo Yodgorov, Hayot Nosirov, usta Safar, usta Adis, usta Savri, usta Isom, usta Ikrom, usta Jo'ra
		Toshkent	Toshpo'lat Arslonqulov, Arslonqul Nazarov, Usmon Ikromov, Mahmud Usmonov, Anvar Po'latov, Mirmahmud Rahmatov, aka uka Abdurahmon va Mo'min Sultonovlar, Hayot Abdullayev, Ziyodulla Yusupov, Umar Tohirov, Mirvohid Usmonov
		Samarqand	Anvar Quliyev, Tursunboy Ismoilov, Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov

Ushbu jadvalda O‘zbekistonning turli viloyatlarda yashab ijod etgan ustalar nomi keltiriladi. O‘zbek milliy interyer dizayn asosini tashkil qiluvchi naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorlik, ganch o‘ymakorlik bo‘yicha har bir hududda maktablar tashkil etilib, buyuk qo‘li gul ustalar ustozlik qilishgan.

Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, karvonsaroy, qal’alar va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Biroq asrlar davomida bo‘lib o‘tgan janglarda ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.


III asrda Tuproq-qal’aning serhasham saroy mehmonxonalari o‘yma ganch bilan bezatilgan. VII-VIII asrlarning boshariga kelib ko‘shk, qo‘g‘onlar, shaharlarga ibodatxonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog‘och va ganch o‘ymakorligi yanada rivoj topdi, buni Afrasiyob, Varaxsha va Yumoloq tepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o‘simliksimon va geometrik shakllarning o‘yma namunalari ko‘rish mumkin.

XIII asrda ganchkorlik san’ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o‘ymakorligi ishlari misol bo‘la oladi. XIV- XVIII asrlarda ham binolarning ichki qismlarini bezatishda ganchkorlik san’atidan foydalanilgan. Ganchkorlikning eng gullab-yashnagan davri XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari hisoblanadi.



1-rasm. Amaliy san’at muzeyi (sobiq Polovsev uyi). Eshik, tom qismlari.

Sobiq Polovsev uyi 1937-yilda O‘zbekiston respublikasi amaliy san’at muzeyi sifatida tashkil etiladi. Muzeyning ichki interyeriga nazar solsak, amaliy bezak san’at ustalarining mehnatini ko‘rish mumkin. Bino ichki qismi to‘liq holda milliy o‘zbek interyeri elementlari bilan bezatilgan. Odatda, ustalar binoning interyer devorini uch qismga bo‘lib bezaganlar. Devorning pastki “idora” (panel) qismini ko‘pincha naqqoshlar bilan bezab, o‘rta qismiga ko‘pincha tokcha, namoyon, dahana, taxmon ishlaganlar, devorning eng tekis qismi sharafa bilan bezatilgan. Taxmon, tokcha, deraza chetlari “zanjira” deb ataladigan naqqosh hamda raxlar bilan hoshiyalangan. Bu zanjiraning eni taxminan 2 – 5 sm bo‘lgan naqqosh, ya’ni “ruta” naqqoshlari bilan bezalgan. O‘zbek interyer dizayn elementlariga – tokcha, taxmon, ustun, sandal, so‘zana, gilam, yog‘och o‘ymakorlik eshiklar, ganch o‘ymakorlik devorlari va derazalarni kiritishimiz mumkin.



2-rasm. Amaliy san'at muzeyi (sobiq Polovsev uyi). Devor qismi.

Amaliy san'at muzeyining ichki interyerini taxlil qilsak, devor qismi to'liq ganch o'ymakorligida ishlanib, turli an'anaviy rang gammalari berilgan. Yana yuqoridagi rasmda ko'rsatilganidek, devorda gumbaz shakl ichida mayda tokchalar bo'lib, amaliy san'at buyumlari bilan to'ldirilgan. Bu tokchalar atrofi nafis naqshlar bilan bezaklar berilgan. Muzeyning eshik va tom qismi hamda ustunlari turli milliy naqshlar tushirilib, o'yib ishlangan yog'och o'ymakorlikdagi san'at durdonalarini ko'rib, vatanimizning buyukligini yana bor bora his etamiz.

2-jadval

Dizayn turi	Xona ichki qismi	Ishlatiladigan amaliy bezak turlari
O'zbek milliy interyer dizayn	devor	ganch o'ymakorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, gilamdo'zlik, kashtachilik (so'zana)
	eshik	yog'och o'ymakorlik
	deraza romlari	ganch o'ymakorlik, yog'och o'ymakorlik, naqqoshlik,
	tom qismi	ganch o'ymakorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik
	pol	gilamdo'zlik

Bu jadvalda ko'rib turganimizdek, o'zbek interyer dizaynda bino ichini bezashda asosan ganch o'ymakorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi ko'p qo'llanilishi hamda uzviy bog'liqligi namoyon bo'lgan. Bu amaliy bezak san'ati turlari asosini naqqoshlik tashkil qilishi, ganchkorlik va yog'och o'ymakorligi ustalari albatta naqsh chizishni bilishganini anglasak bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin bu xalq amaliy bezak turlari yo'qola boshlagan. "Tez va arzon quraylik, ortiqcha hashamatlardan qochaylik" shioriga amal qilinishi sabablidir. Lekin 1966-yilda yuz bergan tabiiy ofatdan so'ng, 1967-yildan binolarni milliy bezash yana rivojlangan.

Ilmiy tadqiqot davomida quyidagilarga erishildi.

- Amaliy bezak san'ati turlaridan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik o'zbek interyer dizaynda muhim o'rin tutishi isbotlandi.

- XIX – XX asrlar O'zbekiston hududlarida naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, ganchkorlik amaliy bezak ustalari haqida ma'lumotlar to'planib, ularning hudud va nomlari 1-jadvalda keltirildi.

- Amaliy san'at muzey (sobiq Polovsev uyi) binosining interyeri o'rganildi va taxlil etildi.

- O'zbek interyer dizaynda binolarning ichki qismini bezashda milliylikimizni namoyon etuvchi asosiy ishlatiladigan amaliy bezak turlarining qo'llanilishi va bog'liqligi 2-jadvalda ko'rsatildi.

Ilmiy izlanishlar natijalarini xulosa qilsak, o'rganilgan ma'lumotlardan o'zbek interyer dizayn asosini naqqoshlik, yog'och o'ymakorlik, ganchkorlik amaliy bezak san'at turlari tashkil qiladi deya olamiz, shu sababdan hozirgacha bizga yetib kelgan tarixiy obidalarimizni kuzatsak, bu interyer bezak ishlarini amalga oshirgan ota-bobolarimiz ko'z oldimizga keladi. Shu sababda bu go'zallikni yaratgan ustalar tarixda o'chmas iz qoldirganlar. Amaliy san'at muzey interyer bezaklari hozirgi kunga qadar xalq hunarmandchilik ustalari, interyer dizaynerlar tomonidan muzey devor, tom, eshik qismlarini sinchkovlik bilan o'rganilib, o'z loyihalarida qo'llamoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev H., Bulatov S. Ustoz va shogird odobi. O'quv-uslubiy qo'llanma. "O'zbekiston" nashriyoti-matbaa ijodiy uyi. T., 2005.
2. Bulatov S. « O'zbek xalq amaliy san'ati», T., «Mehnat» ,1991.
3. Nozilov D.A. Markaziy Osiyo me'morchiligida interyer. O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. Toshkent. 2005.
4. Hakimov A., Nosirova Z., Nodir B. O'zbek xalq amaliy san'ati. O'quv qo'llanma. LESSON PRESS nashriyoti. T., 2019.
5. Hakimov A. O'zbekiston san'ati tarixi. "Zilol buloq" nashriyoti. T., 2022.
6. Ro'ziyev N. Bino bezaklarida milliylik va zamonaviylikning uyg'unligi. Bitiruv malakaviy ish. Andijon. 2015.
7. uz.m.wikipedia.org/wiki/Amaliy_san'at.